

**TO'LANTOSH MAYONIDA UZULMALI STRUKTURALARNING
QUMTOSH TURIDAGI URAN MADANLASHUVIDAGI ROLI**

Yusupov Dilshod Mirza O'g'li

Geologiya fanlari Universiteti

Umumiy geologiya kafedrası magistranti

e-mail: ydilshod72@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada To'lantosh maydoni hududidagi yer yoriqlarining qumtosh turidagi uran ma'danlashuvidagi roli keltirilgan. To'lantosh maydonidagi Aytim va unga tutash yoriqlarning uranni to'plashdagi urni aniqlanadi.*

Annotation: *The article presents the role of geological faults of sandstone type in uranium mineralization within the Tylyentas field region. The significance of the Aytim fault and adjacent structural features in uranium accumulation within the Tylyentas field is determined.*

Аннотация: *В статье показана роль геологических разломов песчаникового типа в уранового оруденения в районе месторождения Тюленташ. Определяется значение разломов Айтим и смежных с ними структур в накоплении урана в месторождении Тюленташ.*

Kalit so'zlar: *Aytim, braxiantiklinal, uran uzulmali struktura, yuqori bo'r, qumtoshlar, qum.*

Keywords: *Aytim, brachyanticline, uranium-bearing faulted structure, Upper Cretaceous, sandstones, sand.*

Ключевые слова: *Айтим, брахиантиклиналь, ураноносная разрывная структура, верхний мел, песчаники, песок.*

O'zbekiston uran zahiralari va uni qazib olish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib, uni ishlab chiqarish Respublikamiz iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bu qazilma turi strategik ahamiyatga ega bo'lib, uning xom-ashyo bazasini kengaytirish davlatimiz uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bunga misol qilib Fransiya, Rossiya va Yaponiya kabi iqtisodiyoti yirik bo'lgan mamlakatlarning yurtimiz uranini harid qilishga bo'lgan qiziqishining kundan kunga ortib borayotganini keltirish mumkin. Shu sababdan yangi uran zahiralari topishimiz va radioaktiv elementlar eksplotatsiyasi miqdorini oshirishimiz iqtisodiyotimiz uchun ahamiyatlidir.

To'lantosh maydonining o'rganilish tarixi uran va oltin konlarining ochilishi bilab bog'liqdir. Ya'ni bu hududda oltin va uran qidiruv ishlari bir vaqtda olib borilgan. Dastlabki qidiruv bosqichi 1940-1950- yillarda amalga oshirilgan, shu vaqtda asosiy e'tibor Paleozoy yoshidagi tog' jinslariga yotqiziqlariga qaratilgan. Uran konlarining

kashf etilishi 1960-1970-yillarda bo'lgan. Shu yillarda ochilgan konlardan biri Uchquduq koni hisoblanadi. Keyinchalik "Qiziltepageologiya" ekspeditsiyasi tomonidan To'lantosh maydoni bo'ylab o'rganish ishlari olib borilgan. Geologiya-qidiruv ishlari natijasida Yuqori Bo'r davri yotqiziqlarida qatlam oksidlanish zonalarini bilan bog'liq uran ma'danlashuvi belgilari aniqlandi. Batafsil qidiruv va baholash ishlari bosqichi 1980-2000 yillarda o'tkazilgan. Bu yillarda nafaqat To'lantosh hududida balki unga qo'shni hududlarda ham burg'ulash ishlari olib borilgan.

To'lantosh maydoni strukturaviy jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning shakllanishida tektonik jarayonlar muhim rol o'ynagan. Uran to'plamlarining ustidagi qopqoq vazifasini o'tovchi qatlam, suv o'tkazmaydigan va tektonik jarayonlar natijasida oson yorilib ketmaydigan bo'lishi yoki yorilgan taqdirda o'z shakliga yana qayta tiklana olishi juda muhim. To'lantosh koni yosh platformada joylashganligi sababli yuqorida ta'kidlangan xususiyatlar ushbu kon uchun ahamiyatli. To'lantosh ma'ydonida uran to'planishi uchun qatlamlarning ma'lum bir strukturalari mavjudligi juda muhim ahamiyatga ega. Maydonda tektonik yoriqlarning mavjudligi, radioaktiv eritmalarning aynan usha yoriqlar bo'ylab cho'kishiga yordam beradi.

To'lantosh maydoni strukturaviy jihatdan birmuncha murakkab bo'lib, bir qancha uzulmali strukturalarni o'z ichiga oladi. To'lantosh maydonining markaziy qismidan o'tuvchi Aytim yorig'i va undan tarmoqlangan boshqa yo'nalishdagi yer yoriqlari maydonni ikkiga ajratib, G'arbda Mingbuloq botig'i va Janubi Sharqida Beshbuloq botig'i joylashgan. To'lantosh braxiantiklinali maydonning markaziy qismidan o'tadi. Joylashuvi, hududning Janubi G'arbidan Shimoli Sharqqa qarab yo'nalgan, bu braxiantiklinalning o'zi uran hosil bo'lib to'planishida asosiy ombor vazifasini o'taydi. Bu esa ushbu maydondagi asosiy radioaktiv anomalialarni ko'rsatuvchi bo'r davriga tegishli bo'lganligi bilan bog'liq. Chunki hududdagi asosiy bo'r davri yotqiziqlari aynan To'lantosh braxiantiklinali joylashgan hududga to'g'ri keladi. Aytim yorig'i esa aynan shu braxiantiklinalning deyarli markazidan kesib o'tadi. Aynan shu yoriq neogen va paleogendan tashqari barcha Paleozoygacha bo'lgan barcha qatlamlarni kesib o'tadi (Paleozoy davrini yotqiziqlari qanchalik kesib o'tilgani esa o'rganilmay qolgan).

Xulosa

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib shuni aytish mukinki, To'lantosh hududidagi uranning hosil bo'lishi yaqin atroddagi paleozoy davri yotqiziqlarining suv yordamida eritma hosil qilishi va tashilgan aytim yorig'i esa bu radioaktiv eritmalarni yuqori bo'r davri qatlamlariga cho'kishi uchun zamin yaratgan. Shu bilan birga braxiantiklinal strukturasi radioaktiv elementlarning muayyon bir hududda to'planishi uchun zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov X.K., Babanorov N.S., Borovin K.G. va boshqalar. «Учкудукский тип урановых месторождений Республики Узбекистан» »Toshkent 1996. «Fan» nashriyoti -334b.

2. «Рудные месторождения Узбекистана» Toshkent, Gidroingeo, 2001. -611b. 3. Pak A.I. «Геологическое строение и генезис Учкудукского уранового месторождения». Dissertatsiya. Toshkent 1964y -267b.

